

**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tomonidan 2025-yil 1-chorak yakuni bo‘yicha
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
UMUMIY HISOBOT**

I. “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Aksiyadorlik jamiyati)ning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

Aksiyadorlik jamiyatning 2025-yil 17 yanvardagi 6-sonli buyrug‘i bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan yillik chora-tadbirlar Dasturi” tasdiqlangan. Ushbu dasturga muvofiq fevral oyida Aksiyadorlik jamiyatining barcha boshqarma va bo‘linmalarning faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazildi. Auditdan o‘tkazish jarayonida aksiyadorlik jamiyati muhiti (Kontekst), manfaatdor tomonlarning talablari, xavflar va imkoniyatlar tahlil qilinib olindi. Manfaatdor tomonlarning aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi menejment tizimiga (KQKMT) ta‘sirini aniqlandi. Manfaatdor tomonlarning talablari, xavflar va imkoniyatlar belgilandi. Yanvar-fevral oylarida jamiyat funksiyalari doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amalga oshirildi. Xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha e-antikor.uz platformasi funksiyalar doirasida to‘ldirilib jo‘natish amalga oshirildi. Dastur doirasida **3973/4015 nafar** xodimlardan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to‘g‘risida deklaratsiya arizalar olindi. Tarkibiy bo‘linmalar va boshqaruv apparati axloq komissiyalari tomonidan tahlil natijalari ko‘rib chiqilib vazifalar belgilangan bayonnomalar rasmiylashtirildi. 2024 yil “CERT INTERNATIONAL” xalqaro sertifikatlash organi tomonidan o‘tkazilgan audit natijalari bo‘yicha aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etildi. Hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi va tarkibiy bo‘linmalardagi mas‘ullar tomonidan 44 ta o‘quv seminari, 2 targ‘ibot tadbiri, 1 ta profilaktik va 4 ta davra suhbat tashkil etilib 615 nafar ishchi xodim qamrab olindi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Aksiyadorlik jamiyatida “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati (*Kuzatuv kengashining 2023 yil 25 maydagi 6-son Bayonnomasi*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom (*2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 1-ilovasi*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati (*Kuzatuv kengashining 2023 yil 4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 2-ilova*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti (*2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 2-ilovasi*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma (*2025 yil 17 yanvar kunidagi*

6-son buyruq 3-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 4-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 5-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 6-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakillantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 7-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 8-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 9-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish Siyosati (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 10-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma (2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 11-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida sovg‘alar berish va olish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo‘yicha Siyosati (2022 yil 31 avgust kunidagi 102-son buyruq 4-ilovasi), “O‘zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatida homiylik va beg‘araz yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi Nizomi (Yagona aksiyadorning 2023 yil 5 iyuldagi 94/09-30-qr-son qarori), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi (2023 yil 29 mart kunidagi 49-son buyruq), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish Siyosati (Kuzatuv kengashining 2023 yil 4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 3-ilova), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining Xaridlar faoliyati to‘g‘risidagi Nizom (2024 yil 20 mart kunidagi 29-son buyruq), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining Axloq Kodeksi (Kuzatuv kengashining 2023 yil 4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 1-ilova)lari ishlab chiqilib tasdiqlangan va ushbu ichki normativ-huquqiy hujjatlar Aksiyadorlik jamiyati hamda uning 8 ta hududiy tarkibiy bo‘linmalar kesimida tadbiq etilgan.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 20-fevraldagi 04-07/1139-sonli topshiriq xatiga

muvofiq xavf-xatarlarni baholash bo'yicha e-antikor.uz platformasi 36 ta funksiyalar doirasida to'ldirilib jo'natish amalga oshirildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

Dastur doirasida jami 4015 nafar mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlar 3973 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiya arizalar to'ldirildi. Jumladan, Markaziy apparatda **149/169** nafar, "Qizilqum" MGQE da **964/975** nafar, Markaziy laboratoriyada **99/99** nafar, "Samarqand" MGQE da **928/942** nafar, "Toshkent" MGQE da **669/669** nafar, "Hisor" MGQE **575/575** nafar "Regional" MGTE **341/361** nafar, Markaziy geologiya-geofizika ekspeditsiyasida **145/145** nafar, Analitik laboratoriyada **103/104** nafar. Hozirgi kunga kelib to'ldirilgan deklaratsiyalar tahliliga ko'ra Axloq komissiyasi tomonidan **192 ta** potensial (ehtimoliy) manfaatlar to'qnashuvi, 1 ta haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi aniqlanib bartaraf etish chorasi qo'llanilish bo'yicha topshiriq berilgan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni aksiyadorlik jamiyati shartnomalariga kiritish

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025 yil 1-choragi davomida xaridlar sohasida jami **394 ta** shartnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan:

- elektron do'kon – **170**;
- korporatsion birja – **123**;
- auksion – **81**;
- spot – **1**;
- tanlov – **16**;
- to'g'ridan-to'g'ri – **3**.

Barcha tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritilgan. Korrupsiyaga qarshi bandlarni kiritishni rad etish holatlari mavjud emas.

Kontragentlarni tekshirish

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025 yil 1-choragi davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida shartnoma imzolangan 3 ta tog'ridan-to'g'ri 16 539 330 000 so'mlik, 16 ta eng yaxshi tanlov orqali 42 662 302 272 so'mlik tuzilgan shartnoma yuzasidan *2025 yil 17 yanvar kunidagi 6-son buyruq 4-ilovasi bilan tasdiqlangan* "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma talablari doirasida 9 ta kontragentlar tekshirishdan o'tkazilib, ularda korrupsiyaviy holatlar (manfaatlar to'qnashuvi) aniqlanmadi. To'g'ridan to'g'ri yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga hamda eng yaxshi tanlov bo'yicha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha bandlari kiritilishi yo'lga qo'yilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

2025 yil 1-choragida aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalariga jami 61 ta ishchi-xolim ishga qabul qilindi. Ulardan 12 ta ish o'rinlariga tanlov o'tkazildi, tanlovga jami 108 nafar nomzod ishtirok etib, ishga qabul qilinadigan nomzodlar kompleks tekshiruvdan o'tkazildi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Aksiyadorlik jamiyatning 2025 yil 17 yanvardagi 6-sonli buyrug'i, "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi" ining 14.1-bandiga muvofiq Aksiyadorlik jamiyatining boshqarma, bo'lim hamda tarkibiy bo'linmalarda o'qitish rejasi ishlab chiqilgan.

2025 yilning 15 yanvar kunlari yuridik bo'lim boshlig'i tomonidan Samarqand MGQE markazi va Zarmitan DEda rahbariyati va xodimlari ishtirokida **2 ta**, ishga kirgan xodimlar **14 ta** va tarkibiy bo'linmalar mas'ullari tomonidan **30 ta** o'quv seminarlari tashkil etildi. Bundan tashqari mas'ullar va IIBB, huquq tartibot organlari bilan hamkorlikda **1 ta** profilaktik tadbir va Korrupsiyaga qarshi **2 ta** huquqiy targ'ibot hamda **4 ta** davra suhbat tashkil etildi.

O'quv seminarlari, targ'ibotlar hamda profilaktik tadbirlar davomida jami **619 nafar** rahbar va ishchi-xodimlar qamrab olindi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali tarkibiy bo'linmalar kesimida 3 ta murojaat kelib tushgan bo'lib 2 tasi ish haqi to'lovlaridagi tushunmovchiliklar va 1 tasi fermer xo'jaligi yer maydonida geologiya-qidiruv ishlari uchun burg'ilash ishlari olib borilib buzilgan yer maydonini to'g'rilamaganlik bo'yicha.

Xabarlar bo'yicha Aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya bo'limlari tomonidan ish haqi to'lovlari bo'yicha tushuntirishlar berilib javob xatlari yuborilgan.

Fermer xo'jaligi rahbarining murojaati bo'yicha ishchi guruh shakllantirilib joylar o'rganilib buzilgan yer maydonlari tekislanib kelgusida fermer xo'jaligi yer maydonlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha ruxsatnoma olishda qaysi davlat organi tomoni bilan ish olib borish bo'yicha huquqiy yechim topish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

VII. Monitoring va nazorat

Aksiyadorlik jamiyatning 2025 yil 17 yanvardagi 6-sonli buyrug'i bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi" tasdiqlangan. Ushbu dasturga muvofiq hamda fevral oyida Aksiyadorlik jamiyatining boshqarma va bo'limlarini ichki me'yoriy hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o'tkazilib, ayrim bo'lim nizomlari, lavozim yo'riqnomalarida nomuvofiqliklar va 10 ta bo'limlarning yillik ish rejasi ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Holatlar bartaraf etish bo'yicha topshiriq va muddatlar belgilab berildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

2025 yil 1-choragida hech qanday qoidabuzarliklar aniqlanmadi. Qoidabuzarliklar to'g'risida xabar va murojaatlarni qabul qilishga mo'ljallangan aloqa kanallari doimiy faoliyat yuritmoqda.


IX. Xulosalar

Joriy 1-choragida 7 ta korrupsiyaga qarshi targ'ibotlar. Aksiyadorlik jamiyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini qoniqarli darajada baholash mumkin.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Dastur ijrosini o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, mas'ullarni ish unumdorligini oshirish, hamda hisobotlarning yig'ish bilan bog'liq ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish. Monitoring o'tkazishlarni ixcham va tushunarli olib borishni tashkillashtirish.

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo'lim bosh mutaxassisi**



Q. Majidov